

## SSENARIYNAVISLIKDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH MASALALARI

**Nodira MAMATQOSIMOVA**

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida interfaol usullardan foydalanish masalalari yoritilgan bo‘lib, mazkur interfaol usullarning annotatsion tavsifi berilgan. Mazkur interfaol usullar sohaga oid tadqiqot ishlariga asoslanib ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalarning individual ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ssenariy, ssenariynavis, pedagogika, pedagogik yondashuv, ijodiy yondashuv, interfaol usul.

Fan, ta‘lim, madaniyat va san‘at jabhalarini rivojlantirish, sohada keng ko‘lamda islohatlar olib borish natijasida komil inson shaxsini yaratish shiddat bilan o‘zgarib borayotgan davrning muhim vazifasidir. Bu vazifalar mas‘uliyati millat va davlat kelajagini belgilovchi omil bo‘lib, ta‘lim va tarbiya, nazariya va amaliyotning uyg‘unligi va bevosita bog‘liqligida amalga oshirilishi lozim.

Talabalarning ijodkorligini, ularning iste‘dodini kashf etish zamonaviy pedagogikaning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, bu borada interfaol usullardan foydalanish samarali va mazmunli jarayondir.

Ssenariynavislik san‘at ta‘limidagi muhim fanlardan biri bo‘lib, talabalarga madaniy tadbirlarni tashkil etishda fundamental bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtiradi va talabalarning ijodkorligi va iqtidorini oshirishda kasbiy omil sanaladi.

Respublikamizda ssenariynavislik sohasida anchagina tajribaga ega mutaxassislar soha rivojiga munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. Ssenariynavislik bevosita “Dramaturgiya asoslari” fanining mantiqiy davomi bo‘lib, mazkur fandan olingan nazariy bilimlar asosan amaliy jihatdan mustahkamlanadi.

Fanning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rgatishda zamonaviy o‘zbek san‘ati va madaniyatida, shuningdek ilg‘or xorijiy mamlakatlarda kechayotgan izchil

o‘zgarishlarni e‘tiborga olib, milliy va zamonaviy pedagogika metodlaridan foydalangan holda talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini e‘tiborga olib, ularning badiiy didlarini shakllantirish muhim omildir.

Shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda talaba faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul talabaning mustaqil fikrlashini, ijodiy izlanishini va tashabbuskorlikni so‘ndiradi.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta‘limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talaba egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalashiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi [1, 302-303].

Interfaol (“Inter” – bu o‘zaro “act” – harakat qilmoq) – o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta‘lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi [2, 15].

Ssenariynavislik talabalardan mustaqil ssenariy yaratish, inssenirovka qilish, badiiy asarni tahlil qilish kabi jarayonlarni talab etadi. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda, ya‘ni talabalarning ijodkorligini shakllantirishda quyidagi interfaol usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mustaqil ravishda she‘r va hikoya yozish;
- og‘zaki hikoya;
- mantiqiy hikoya;
- shartli hikoya.

Ssenariynavislikdan tavsiya etilayotgan interfaol usullarning annotatsion tavsifi quyidagilardan iborat:

**Mustaqil ravishda she‘r va hikoya yozish.** Talabalarga Vatan, yoshlik, mardlik, tinchlik va h.k. mavzularda she‘r yoki hikoya yozish beriladi. Talabalar

tomonidan yoritilgan she'r yoki hikoyada badiiylik, mantiqiylik va izchillik, shuningdek mazmun va mavzuning ochib berilishi, adabiyot qonuniyatlariga e'tibor berilishi baholanadi. Bu mashqlarning talabalarning mustaqil ssenariy yozishlari uchun asos bo'ladi.

**Og'zaki hikoya.** Pedagog tomonidan mustaqil mavzuda hikoyaning datslabki qismi e'lon qilinadi. Talabalar mazkur hikoyani navbati bilan bir jumladan davom ettirishadi. Bunda talabalarning hikoya yozishdagi mantiqiyliigi, voqealarni to'g'ri davom ettira olishi, voqealar izchilligiga e'tibor berishi va badiiyiligiga e'tibor beriladi.

**Mantiqiy hikoya.** Talabalarga biror bir muallifning hikoyasi tarqatiladi. Mazkur hikoyaning boshlanishi beriladi. Talaba hikoyani o'qib voqealarni izchil davom ettirishi va mantiqiy bog'lashi lozim.

**Shartli hikoya.** Pedagog tomonidan talabalarga turli sohaga oid predmetlardan aytiladi. Masalan, qaldirg'och, lola, kitob. Mazkur predmetlar ishtirokida talabalar shartli hikoya yozishadi. Hikoya ijodiy fantaziyaga, badiiylik qonunlariga asoslanib yozilishi talab etiladi. Hikoyada voqealar rivoji, kompozitsion tuzilish e'tiborga olinadi. Hikoya qahramonlari shartli ravishda insonlardek muloqatga kirishi mumkin.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, talabalarning ssenariynavislik ko'nikmasini rivojlantirish, mavjud o'qitish metodikasini takomillashtirish, ssenariynavislikdagi ijodiy uslublar va ijodiy jarayonlarni ilmiy asoslash, nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlashda talabalarning ssenariynavislik ko'nikmasini rivojlantirishning innovatsion usullaridan foydalanish mavjud muammolarni kompleks ravishda yechish uchun imkoniyat yaratadi hamda mazkur innovatsion yondashuv talabalarning kasbiy ko'nikmalarini ssenariynavislik asosida shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi pedagogik, shu jumladan didaktik jarayon hisoblanadi.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. Natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, yoki tarqatma materiallar kerak bo'lar. Bularning hammasi pedagog mahorati va talaba ehtiyojiga bog'liq. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar o'z sohalari bo'yicha olib borayotgan mashg'ulotlarida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishlari lozim va shartdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayfullayev B.S. va boshqalar. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
2. Nurmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. O’quv qo‘llanma. – Toshkent: Istedod, 2008. – 180 b.



**Research Science and  
Innovation House**